SIRDARYO VILOYATI GULISTON TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 15 - avgust 231-9-124-Q/23 Guliston tumani hokimligi

Tuman hududidan o‘tuvchi davlat ahamiyatdagi 4R-27 “Guliston sh.-Dehqonobod q.”, 4R-26 “Sirdaryo sh.-Dehqonobod q.-Qiyot q.-Bekobod sh.”, 4N-647 “4R-26 avtoyo‘li-Dehqonobod dam olish maskani” avtomobil yo‘llaridan og‘ir yuk tashuvchi avtotransport vositalarini harakatlanishini taqiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-apreldagi 292-sonli qarori va tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining 2023-yil 25-iyuldagi 01/121-sonli xati hamda Dehqonobod shaharchasida yashovchi bir guruh fuqarolarning murojaatlarini e‘tiborga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining 2023-yil 25-iyuldagi 01/121-sonli xati rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (J.Raximqulov)ga;

- 4R-27 “Guliston sh.-Dehqonobod q.”, 4R-26 “Sirdaryo sh.-Dehqonobod q.-Qiyot q.-Bekobod sh.”, 4N-647 “4R-26 avtomobil yo‘li-Dehqonobod dam olish maskani” yo‘nalishiga yuk tashuvchi avtotransport vositalari (bir o‘q chizig‘iga tushadigan 10 tonnadan ortiq) harakatlanishini taqiqlovchi yo‘l belgilari o‘rnatish;

- avtomobil yo‘llarini ko‘rikdan o‘tkazish hamda avtomobil yo‘llari va piyodalar yo‘laklarini ta’mirlash, shuningdek qurish choralarini ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman IIB (Z.Babaxanov)ga;

-4R-27 “Guliston sh.-Dehqonobod q.”, 4R-26 “Sirdaryo sh.-Dehqonobod q.-Qiyot q.-Bekobod sh”, 4N-647 “4R-26 avtoyo‘li-Dehqonobod dam olish maskani” avtomobil yo‘llarida og‘ir yuk tashuvchi avtotransport vositalarini harakatlanishi cheklansin hamda doimiy ravishda nazorat olib borsin.

4. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari M.Urinbayev va tuman IIB boshlig‘i Sh.Ibragimov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **U.Mamadaminov**